




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo'rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an'analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na'tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O'zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O'RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo'jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O'zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o'rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G'allaorol tumani nurobod qishlog'i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO'RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E'zoza MIZAMOVA "Ravshan" dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO'RAQULOVA, O'zbek xalq ertaklarida "Oq" va "Qora" ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo'llangan ba'zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o'ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi "sar sila" marosimi: an'anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA FOLKLOR JANRLARINING TRANSFORMATSIYASI

TRANSFORMATION OF FOLKLORE GENRES IN MODERN UZBEKISTAN LITERATURE

Mohina BOBOQULOVA,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

Magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OOVW2061

Annotation. *This article analyzes the transformation of folklore genres in modern Uzbek poetry, particularly the manifestations of simple and analytical folklorism. Based on B. Sarimsoqov's theoretical views on folklorism, the poems "Ishonch" by A'zam O'ktam and "Yolg'on" and "Buzoqning o'limidan so'ng" by Eshqobil Shukur are examined. The study highlights the integration of folklore motifs, folk-style images, and traditional poetic elements with modern artistic thinking in these poems.*

Key words: *Folklorism, simple folklorism, analytical folklorism, folklore genres, transformation, modern Uzbek poetry, poetic interpretation, folklore motifs, folk-style imagery, artistic thinking.*

Insoniyat tarixi davomida odamlar moddiy ehtiyojlaridan tashqari olam va odam munosabatini fahmiy jihatdan anglash orqali o'zida bo'shliq mavjudligini his qilib, xalq sifatidan shakllanish jarayonida mana shu bo'shliqni to'ldiruvchi hamda etnografik omillar tufayli bir-biridan farq qiluvchi etnik qadriyatlar, an'analarni yuzaga keltirdi. Tamaddun sari intilayotgan xalq esa bu an'ana va qadriyatlarni avloddan avlodga saqlab qolish uchun yozuv tizimi ishlab chiqilmagan paytlarda xalq og'zaki ijodining dastlabki namunalarini yarata boshladi. Bu folklor namunalari ma'lum bir millatning asliy qadriyatlari va dunyoqarashiga ko'ra farqlanib, adabiyot tarixi, folklor, etnografiya va shu kabi sohalarning asosiy obyektlari sifatida o'rganilib kelinmoqda. Ushbu merosni bugungi kunda ham hozirgi zamon adabiyotida qayta ishlash orqali xalqqa qaytarish, aniqrog'i, millatning milliy kodi sifatidagi rolini tiklash uchun yuzaga kelgan folklorizm termini ostidagi folklor namunalarininig badiiy va ommabop adabiyotga transformatsiyasi masalalarini maqola orqali muhokamasini ko'rish mumkin.

XX asrning 70-80-yillarida o'zbek lirikasida xalq qo'shiqlari motivi va ritmini stilizatsiya qilish kuchaydi. [Шарипова 2019: 40] Folklorizm tushunchasi ma'lum bir folklorga oid namunalarning badiiy adabiyot janrlari tarkibida uchrashi bo'yicha folklorizm tipologiyasi va nazariyasini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan olim B. Sarimsoqov: "Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo'ladi", – deya ta'rif beradi. [Саримсоқов 1980: 39] Unga ko'ra folklorizmlar faqat asar ichida folklor namunalarini keltirish emas, ularni yozuvchi yoki adibning ijodkorligidan foydalanib stilizatsiya orqali shakliy, hatto mazmunij jihatdan o'zgartirish asosida hosil bo'ladi. Bu xususiyatlariga ko'ra folklorizmlar quyidagi ikki turga bo'linadi: oddiy va murakkab (analitik, sintezlashgan, stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar) turdagi folklorizmlar. Ijodkor asarida xalq maqollari va matallarini aynan yoki qisman o'zlashtirib qo'llashi orqali oddiy folklorizmni hosil qilsa, yozma adabiyot tarkibida xalq og'zaki ijodi namunasidan parcha keltirish orqali analitik folklorizmni yuzaga keltiradi. [Шарипова 2019: 45] Bu quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Osmon behad yaqin, Yer esa yumshoq,

Yoshlik qaytib ketmas, u mangu qolar.

Bo'zchiman – bog'layman har kun bir belbog',

Safarim qarimas, yasharib turar. [Ўктам 1999: 44]

A'zam O'ktamning "Ishonch" nomli ushbu she'rida "Osmon yiroq, yer qattiq", "Yoshlik qaytib kelmas", "Bo'zchi belbog'ga yolchimas" kabi maqol-matal ko'rinishidagi folklor namunalarini teskari shaklda qo'llab o'zgacha ma'no hosil qilishga harakat qilinadi. Bahodir Sarimsoqovning tasnifiga ko'ra bu folklorizmlar ijodkorning maqsadiga ko'ra shakl va ma'no jihatdan o'zgartirilgani uchun qayta ishlangan oddiy folklorizmlar turixni yuzaga keltirgan. Bundan tashqari "Safari qarimoq" iborasi ham ba'zi shu soha olimlari tomonidan folklorizm sifatida qabul qilinishi mumkin.

Oq ilon, oppoq ilon,

Oydinda yotgan ilon.

Qorong'uda, qop-qorong'uda

Yig'laydi singlim vijdon. [Э.Шукр 1989: 21]

Eshqobil Shukur ijodiga mansub "Yolg'on" she'rida xalqona ohangda mashhur bo'lgan "Hoy, oq ilon, oppoq ilon, Oydinda yotganing qani?" misralarini yodga soladi. Analitik folklorizmlar asosan xalq qo'shiqlari yoki ularga xos ritmni stilizatsiyalash va zamonaviy adabiyotga xoslash orqali hosil qilinadi. Shoirning "Buzoqning o'limidan so'ng" she'rida ham xalq qo'shiqlarining tasnifida chorvachilikning sog'im qo'shiqlariga kiradigan misralarni aynan keltirilishini kuzatish mumkin:

Uch kunlik buzog'i o'lgan sigirni

Sog'ib olayotir befarzand xotin.

Tuyog'i zirqirab yig'laydi jonivor,

"Ho'sh-ho'sh"lab kuylaydi qayg'uli xotin:

"Kuvshab yegin o'tingni,

Iyib bergin sutingni.

Sening bolang o'libdi,

Xurmo bolang bo'libdi,

Ho'sh-ho'sh, enam-ov, ho'sh. [Э.Шукр 2002: 84]

Insoniyatning azaliy dardlari, armonlari va turli intim tuyg'ularining ramziy ko'rinishlari har davrda har turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Ammo o'z nomi bilan azaliy bo'lgan va har doim insonlarning ichki boy dunyosini jumbushga keltirib turgan hissiy olamni misralarda ifodalash uchun hammaga birday tushunarli bo'lgan sodda va samimiy yo'l, xalqona uslub adabiyotning muhim tasvir yo'li bo'lib qolaveradi. Yuqoridagi misralarda odamlarning maishiy hayot muammolaridan tashqari o'ylantirib kelayotgan yor ishqida kuyish, zulm, bevafolik, befarzandlik, farzand dog'i yuki kabi masalalar folklorizmlarning oddiy va analitik turi orqali yuzaga chiqadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, san'atkorlar va so'z ustalari har qachon xalq dardiyu umidlarini o'z ijodida aks ettirganda uni xalq ommasi bevosita tushunishi hamda muallif ijodi xalqchilligining ortishiga xizmat qilgan bo'ladi. Bunda, albatta, bu vazifani oldindan bajarib kelayotgan xalq og'zaki ijodidan hamnafaslik va uning obrazlilikni ta'minlashga yordam beruvchi usullaridan o'z ijodida foydalanish zamonaviy adabiyot va folklor muttanosibligi orqali yangi folklorizmlarning hosil bo'lishiga yo'l ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. №4. – Б. 39.
2. Ўктам А. Қирқинчи баҳор. Шеърлар. – Тошкент: Қатортол-Камолот, 1999.
3. Шарипова Л. Шеърят ва фольклор. – Тошкент: Наврўз, 2019.
4. Шукр Э. Ҳамал айвони. Шеърлар ва достон. – Тошкент: Шарк, 2002.
5. Шукр Э. Тунгги гуллар. Шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардиячи, 1989.